

O'ZBEK TILINING ZAMONAVIY RIVOJLANISHI VA UNING MILLIY MADANIYATDAGI O'RNI. TILNING HIMOYASI VA TARAQQIYOT ISTIQBOLLARI

Umarjonova Robiyaxon To'xtasinboy qizi

Qo'qon Universiteti Andijon Filiali, KUAF

Filologiya Va Tillarni O'qitish ingliz-tili yo'nalishi 1-kurs talabasi,

E-mail: robiyaumarjonova68@gmail.com

+998501874540

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18617124>

Annotatsiya: Ushbu ishda o'zbek tilining zamonaviy rivojlanish jarayonlari, uning jamiyat hayotidagi o'rni hamda milliy madaniyatni shakllantirish va saqlashdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda globallashtirish sharoitida o'zbek tilining leksik, stilistik va funksional jihatdan boyib borishi, axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya vositalarining til taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek tilining milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni avloddan avlodga yetkazish va jamiyatda ma'naviy birlikni mustahkamlashdagi roli ochib beriladi. Ishda davlat tiliga e'tiborning kuchayishi, ta'lim tizimi va madaniy sohalarida tilning qo'llanilishi masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur annotatsiya o'zbek tilining zamonaviy davrdagi rivoji va milliy madaniyat bilan uzviy bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, tilning himoyasi, milliy madaniyat, zamonaviy rivojlanish.

Аннотация: В данной работе освещаются современные процессы развития узбекского языка, его роль в жизни общества и значение в формировании и сохранении национальной культуры. Анализируется лексическое, стилистическое и функциональное обогащение узбекского языка в контексте глобализации, влияния информационных технологий и средств массовой информации на развитие языка. Раскрывается также роль узбекского языка в понимании национальной идентичности, передаче культурного наследия из поколения в поколение и укреплении духовного единства в обществе. Особое внимание уделяется вопросам повышения значимости государственного языка, его использования в системе образования и культурной сфере. Данная аннотация направлена на научное обоснование развития узбекского языка в современную эпоху и его неразрывной связи с национальной культурой.

Ключевые слова: узбекский язык, защита языка, национальная культура, современное развитие.

The modern development of the Uzbek language and its role in national culture.

Language protection and development prospects

Abstract: This work sheds light on the modern development processes of the Uzbek language, its role in the life of society, and its importance in the formation and preservation of national culture. The study analyzes the lexical, stylistic, and functional enrichment of the Uzbek language in the context of globalization, the impact of information technologies and mass media on language development. It also reveals the role of the Uzbek language in understanding national identity, transmitting cultural heritage from generation to generation, and strengthening spiritual unity in society. The work also pays special attention to the issues of increasing attention to the state language, the use of the language in the education system and cultural spheres. This annotation is aimed at scientifically substantiating the development of the Uzbek language in modern times and its inextricable link with national culture.

Keywords: Uzbek language, language protection, national culture, modern development.

Ona tilimizda bizning milliy qadriyatlarimiz, tariximiz va yutuqlarimiz mujassam bo'ladi. Shu sababli u millatimiz tayanchidir. Mamlakat taraqqiyoti, uning rivojlanib borishi tildan o'z aksini ko'rsatib turadi. Davlat tili jahonda o'z o'rnini kengaytirib borishi ham millatning rivojlanib, taraqqiy topayotganining dalili bo'la oladi. Bundan tashqari, tarixni o'zligi bilan o'rganish uchun ona tili muhim o'rin egallaydi. Xalqlar o'z tarixini o'rganish va uni kelajak avlodga yetkazib berish ma'suliyatini zimmasiga olib yashaydi. Chunki millatning urf-odatlarini, qadriyatlarini va xalq og'zaki ijodidan namunalari tilda saqlanib qoladi. Bu xazinalarni kelajak avlodga yetkazib berish uchun tilning ahamiyati katta. Agar til yo'qolsa, u bilan birga barcha milliy qadriyatlar yo'qolib ketadi. Shu sababli ulug' yozuvchilarimiz va davlatimiz onatimiz rivoji uchun harakat qilishmoqda. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ham onatimiz yuksalishi kerakligini nutqlarida va asarlarida ko'p ta'kidlab o'tganlar. Shu kabi nutqlarining birida "Ona tili – bu millat ruhi, millat yuragi" deb tilimizga urg'u berib o'tganlar. Rostdan ham millatimiz yuragi bu bizning tilimiz. U faqatgina aloqa vositasi emas, balki bizning ma'naviy xazinamizdir. Bu xazinani ko'p yillar davomida boyitib kelayotgan buyuk ijodkorlar onatimizning bugungi kundagi mavqeiga o'z hissasini qo'shishgan. Ularning asarlari tufayli o'zbek tilimiz boshqa millatlar orasida ham mashhur bo'lmoqda. O'zbek tilida yozilgannadir asarlar xalqaro tillarda tarjima qilinishi hamda jahon kitobxonlari orasida hurmat va mehr



qozonishi millatimizning ham nufuzini oshirmoqda. Bu esa o'z navbatida bizda tilimizga bo'lgan mehrni va faxrni uyg'otmoqda. Millatimiz tayanchi bo'lgan tilimiz kundan kunga rivojlanib borishi biz avlodlar uchun faxr barobarida mas'uliyat ham yuklaydi. Chunki ilm-fanda va texnologiyada o'z o'rniga ega bo'layotgan o'zbek tilini kelajak avlodga boyitib, milliy qadriyatlarini yo'qotmagan holda yetkazib berish bizning zimmamizda. Til nafaqat xalq orasida, balki davlat ishlarida ham muhim vosita hisoblanadi. Har bir mustaqil davlatning o'z ona tili uning mustaqil va erkin ekanligini belgilab turadi. Shu sababli har bir davlat o'z tili orqali siyosiy boshqaruvini olib boradi. Bugungi kunda davlat tili maqomiga ega o'zbek tili rasmiy hujjatlar, rasmiy maktublar, e'lonlar, qonunlar va farmonlarda ishlatiladi. Barcha rasmiy idoralar va ularning hujjatlari o'zbek tili me'yorlariga rioya qilinib yozilishi shart. Zarur hollarda boshqa tilga tarjima qilinadi. Ammo asl nusxasi o'zbektilida bo'ladi. Bu boshqaruv tizimi uchun ham tilning nufuzi va amaliy ahamiyati uchun ham muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat tili rasmiy sohalarida ham keng qo'llanilib, o'zining qamrovini kengaytirdi. O'zbekistonda sharoit hukmronligi paytida o'zbek tili mavqei pasayganedi. Bu esa o'z navbatida tilning yo'qolib borishi va qadrini yo'qolishiga olib kelgan. Onatimiz o'z o'rnini yo'qotib qo'ymasligi va qadriyatlarini saqlab qolishi uchun "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilindi. Bu qonun orqali tilning mavqei oshishi ta'minlandi. Bundan tashqari, mustaqilligimiz ham davlat tilimiz asosida mustahkamlandi. Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, "O'zbek tili Davlat tili sifatida xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizni ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuch bo'lib maydonga chiqdi. Ayni vaqtda u O'zbekistonning davlat mustaqilligi sari qo'yilgan birinchi dadil qadam edi". Haqiqatan ham tilimizning bugungi kunda rivojlangan davlat bo'lishimizda hissa katta. Bundan ko'rinib turibdiki, tilimiz biz uchun faqatgina ma'naviy xazina emas, balki, davlat boshqaruvimizning ajralmas qismi.

Jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir davriga kelib ayrim tillar aloqa qilish doirasidan chiqib ketadi va got, lotin, poloves kabi o'lik tillarga aylanib qoladi.

Til taraqqiyotidagi birinchi yo'nalish differentsiatsiya (ajratish) hodisasidir. Qabiladagi kishilar soni ko'payishi bilan aholisi o'troqlashib qolgan hudud qabilaning turli iqtisodiy narsalarga bo'lgan ehtiyojini qondira olmaydi va boshqa bir qanchasabablar tufayli qabila bo'linib ketishi mumkin. Turli qabilalar bo'linib chiqqandan so'ngi z'lari ajralib chiqqan oldingi Qabilaning tilidan foydalana beradi. Shunga qaramay ma'lum bir shart-sharoitlar natijasida ularning tillarida farqlar paydo bo'ladi. Asta-sekin jamiyat ya'ni shevalar, lahjalar vujudga keladi. Bu esa tillarning shakllanishidagi birinchi eng asosiy yo'ldir.



Tillarning taraqqayotidagi ikkinchi yo'l integratsiya (qo'shilib ketish)dir. Jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir davriga kelib turli ob'ektiv sabablarga ko'ra umumiy dushmandan, tabiiy ofatlardan saqlanish uchun ba'zi qabilalar qo'hilib ketadiva qarindosh qabilalarning uyushmasi (ittifoq) paydo bo'ladi. Natijada asta-sekin uyushmagan jamoaning hamma a'zolari uchun tushunarli bo'lgan umumiy til yuzaga keladi.

Jamiyat taraqqiyotining keying bosqichlarida hudud jihatdan bir muncha mustahkamlangan davlatlar paydo bo'ladi. Davlat paydo bo'lishi xalqlar o'rtasida turli-tuman munosabatlarning rivojlanishiga olib keladi. Buning natijasida davlat hududida yashovchi barcha kishilar uchun muhim aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan xalq (elat) tili vujudga keladi. Umumiy bir til davlatning shart-sharoitlariga qarab shu davlatda yashovchi asosiy xalqlarga tushunarli bo'lishi mumkin. Jamiyat tarixida o'zbek tili Oltoy tillar oilasining turkey tillar turkumiga kiradi. Dunyoga 24 xil turkey til bor: o'zbek, turkman, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turk, uyg'ur, boshqud, tatar, chuvash, yoqut, qorachoy, bolgar, tuva, oltoy turklari, xakas, gagauz, shor, qoraim, qumiq, no'g'ay, oyrat, karagas. O'zbek adabiy tili tarixi quyidagi qatlamlarni o'z ichiga oladi:

1. Qadimgi turkiy adabiy til. (X-XI asrlar). O'rxun-Enasoy yodgorliklari (V-VII asrlar). Mahmud Koshg'ariyning "Devoni- lug'oti turk" ("Turk tillar devoni"), Yusuf Xos Hojibning "Qutatg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") asarlari shu tilda yozilgan.

2. Eski o'zbek adabiy tili. (XIII-XIX asrning ikkinchi yarmigacha). Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Rabg'uziyning "Qissayi Rabg'uziy", Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Maxmur, Muqumiy, Furqat, Zavqiy va boshqalar asarlari.

3. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (XIX-asrning ikkinchi yarmidan hozirgi davrgacha). "Turkiy viloyati gazet" nashr qilina boshlagan vaqtdan (1870-yildan) e'tiboran to hozirgi kungacha yaratilgan barcha asarlar hozirgi o'zbek adabiy tilining namunalari hisoblanadi.

O'zbek tili XI asrdan mustaqil til sifatida shakllana boshladi, XIII asrda eski o'zbek adabiy tili shakllanib bo'ldi, keyingi taraqqiyoti milliy mtillarning yuzaga kelishi bilan bog'liqdir. Shunday qilib, millat paydo bo'lishi bilan birga milliy til ham yuzaga keladi. Milliy tilning yagonaligi xalq tilining tarixiy taraqqiyoti orqasida shakllanadi. Buni o'zbek tili misolida yaqqol ko'rish mumkin. Milliy til shevalar bilan o'zaro bog'langan holda taraqqiy etaveradi. Shuni aytish lozimki, davrlar o'tishi bilan tilde yangi so'zlar, iboralar paydo bo'ladi. Tilning lug'at tarkibi va grammatik qurulishi takomillashadi, lekin u o'z fonetik tizimini, asosiy leksik



tarkibi va grammatik qurilishini saqlab qoladi. O'zbek adabiy tilining taraqqiyotida ajralish va birlashish bir vaqtda yuz bergan. Zero, XIV asrga kelib, eski o'zbek tilining boshqa turkiy tillardan farqlanishi, ajralishi kuchaygan. Bu, albatta, uning ichki lahjalarining yaxlitlana boshlashi, ular orasidagi farqlarning ma'lum darajada susayishi bilan belgilanadi. Bu tarixiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog'liq hodisadir. O'zbek tilining dialekt va shevalari uzoq o'tmishda o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda o'zaro umumiylik kasb etib, yagona o'zbek tilini tashkil etib borgan. Lekin ular o'z mustaqilligini ta'minlovchi farqlarni saqlab qolavergan. Masalan, o'zbek tilining qipchoq lahjasida qipchoq tillarining xususiyatlaridan bo'lgan singarmonizm to'liq saqlangan. Shu boisdan uning unli fonemalari miqdori 9 ta. So'z boshida **y** tovushi o'rnida **j** tovushi qo'llanilishi, **f** tovushining deyarli qo'llanmasligi, **x** tovushining **h** tarzida ekanligi, so'z o'rtasi va oxirida **g'** tovushining **v** tarzida talaffuz etilishi, oltita kelishik shaklining to'liq saqlanganligi va boshqa leksik farqlar (checha-yanga, bo'la-xolavachcha), tulup (junli issiq po'stin), lochira, g'ilmindi, kulchatoy, janchmich (ovqat turlari) bu lahjaning nisbiy mustaqilligini ko'rsatadi. Bunday farqlarni qarluq-chigil-uyg'ur va o'g'uz lahjalarida ham kuzatish mumkin. Umuman olganda, lahjalar fonetik, morfologik va leksik jihatdan o'zaro va adabiy tildan farqlanib turadi. Lekin bunday o'ziga xos tafovutlarga qaramay, o'zbek tilining barcha sheva va lahjalariaro umumiylik ustuvorroqdir. Albatta, bu farqlar o'zbek adabiy tilini boyitishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham sheva va lahjalarga o'zbek milliy tilining quyi shakli va o'zbek adabiy tilining ichki imkoniyati sifatida qaraladi hamda ulardan unumli va oqilona foydalanish talab qilinadi. Adabiy til esa milliy tilning yuqori ko'rinishi sifatida mazkur imkoniyatning voqelangan mahsulidir. O'zbek milliy tilining laxjalari orasida, odatda, qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi adabiy tilning tayanch manbasi deb qaraladi. Bu lahjaga Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Qarshi, O'sh, Marg'ilon, Jalolobod, Termiz va boshqa shaharlarning shevalari kiradi. Ba'zi olimlar o'zbek adabiy tili me'yorlarini belgilashda Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Andijon, Farg'ona shevalari morfologik jihatdan tayanch sheva degan biryoqlama fikrni ilgari suradilar. Aslini olganda, A.K.Borovkov qayd qilib o'tganidek, o'zbek tilining birorta shevasini ham adabiy tilga hamma jihatdan asos bo'lgan deb aytib bo'lmaydi. Chunki o'zbek tilining barcha lahjalari o'zbek adabiy tilining taraqqiyotiga ma'lum bir darajada hissa qo'shgan. Birining ta'siri kuchayganda, ikkinchisidiki susaygan bo'lishi mumkin. Masalan, Andijon, Farg'ona shevalari o'zbek adabiy tiliga xos eng ko'p tarqalgan grammatik shakllardan birini - hozirgi zamon fe'lining **-yap** affiksi vositasida yasaluvchi



shaklini bergan deyiladi. Lekin bu shakl qipchoq laxjalarida ham aynan shunday qo'llanadi. Shunisi xarakterliki, bir nazarda adabiy tildan birmuncha uzoqroq deb tasavvur qilinadigan qipchoq lahjasi morfologiyasi singar-monizmdan, ya'ni fonetik o'ziga xoslikdan xoli olinsa, adabiy til morfologiyasi bilan aynandir. Yoki adabiy tilga fonetik jihatdan asos deyilgan Toshkent shevasida **x** va **h** tovushlari, qaratqich va tushum kelishiklari shakllari farqlanmaydi. Qipchoq shevalarida esa ular qat'iy farqlanadi. Qipchoq shevalarining adabiy til lug'atini, xususan, uning chorvachilik atamaları tizimini rivojlantirishda, adabiy tilning uslubiy imkoniyatlarini boyitishda katta hissasi bor. Masalan, qirqim, o'tov, to'l, sarimoy, chakki, chalop, uloq, sovliq kabi umumiy va chorvachilik atamaları, quyruq, bovrur, oq patir, tovoq, kulchatoy, lochira singari pazandachilik atamaları adabiy tilga qipchoq shevalaridan kirib kelgan.

Adabiy tilning rivojlanishiga o'zbek tilining o'g'uz lahjasi ham ma'lum darajada hissa qo'shgan. Buning uchun adabiy tildagi yoshulli, o'g'lon, buyon, qaydin, qorago'z kabi qator so'zlarni misol sifatida keltirish kifoya. Demak, o'zbek adabiy tilining taraqqiyotida barcha lahja va shevalar birday manba bo'lib xizmat qilgan. Bunda ularning birortasiga ustuvorlik maqomini berish ma'qul emas. Demak, ma'lum bir tilning qarindosh tillarga va shevalariga munosabatida ikki xil - differentsiatsiya va integratsiya jarayonlarini kuzatish mumkin. Bugungi kunda adabiy til va shevalar munosabatida muttasil integratsiya jarayoni kechayotir. O'zbek xalqining yoppasiga savodxonligi, maishiy hayotining tubdan o'zgarganligi, ta'lim tizimining yuqori darajadaliği, matbuot va televideniyeining rivojlanganligi, madaniy sohada amalga oshirilayotgan tadbirlar o'zbek adabiy tili va shevalarini bir-biriga yaqinlashtirdi.

Adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat tili" "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" haqidagi qonunlari. "Xalq ta'limi".
- 2.Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. T. 1993. 23
- Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 1996
- 3.Azizov O. Tilshunoslikka kirish. T. 1963.
- 4.Mirzayev M., UsmonovS., Rasulov R. O'zbek tili. T. 1979. 1-2
- 5.Shodmonov E., Nafasov T. Hozirgi o'zbek tili. Laboratoriya mashqlari. T. 1986
- 6.www.ziyonet.uz

